

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.M.Qandov	
Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
U.J.Mansurov	
Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
M.M.Alimova	
1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi	312
J.Museyibzada	
Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
A.A.Azizov	
Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida)	324
A.T.Ahmedov	
Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	328
D.A.Urinbayeva	
Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
T.Ch.Xoliyarov	
Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi	340
X.X.Mamajonov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniyalar imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar	347
I.S.Yusupov	
Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi	351
F.K.Jumanazarova	
Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
U.X.Gulmatov	
O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni	359

ADABIYOTSHUNOSLIK

U.B.Matmurotova	
Badii tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xshatish misolida.....	364
Sh.A.Safarova	
"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish	369
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar	374

TILSHUNOSLIK

A.B.Uralov	
Til sathlarida nomutanosiblik	381
A.Sh.Muxamadiyev	
Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova	
Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida	393
U.Sh.Turaeva	
Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
Y.T.Rakhmonkulova	
A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages	401
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli	405
M.O.Usarova	
Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari	413
Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова	
Смыковые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер	417
B.Q.Nomonov	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



УО'К: 94:007(575.1)“1991/2020”(043)

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA POCHTA ALOQA TIZIMIGA RAQAMLI XIZMAT TURLARINI JORIY QILINISH TARIXI

ИСТОРИЯ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ СИСТЕМЫ ПОЧТОВОЙ СВЯЗИ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

HISTORY OF IMPLEMENTATION OF DIGITAL SERVICES OF THE POSTAL COMMUNICATION SYSTEM IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Yusupov Izzat Sultonovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinosi, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

<https://orcid.org/0009-0005-3562-9620>

Annotatsiya

Istiqlol yillarida O'zbekiston pochtasi tizimida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Respublikadagi deyarli barcha aloqa bo'limlarida raqamli xizmat turlari tashkil qilindi hamda yangi ish o'rnlari sonini oshishiga erishildi. Mamlakatimiz aholisiga sifatli xizmat ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi. Pochta almashinuvlari nafaqat respublikamiz ichida, balki qo'shni va xorijiy davlatlar bilan ham amalga oshirildi. Pochta xizmati o'rnini Internet ham, elektron pochta ham bosa olmaydi. Aksincha, ular pochta xizmatlari uchun yangi qulay imkoniyatlarni yaratib berdi. Biz turli xil aloqa vositalari bir-birini to'dirib turgan davrda yashayapmiz. Pochta maydoni faqtgina onlayn rejimida xarid va taklif qiluvchilarga, balki yangi texnologiyalardan foydalanishni bilmaydigan va tashqi dunyo bilan aloqada bo'lish uchun hayotida zarur ahamiyatga ega bo'lganlarga ham kerakli xizmatlarni ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda pochta aloqasi mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va mustahkamlashda fuqarolarning turmushini yaxshilashda va maishiy qulayliklarni oshirishda muhim o'mniga ega ekanligi mazkur maqolada ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация

За годы независимости в почтовой системе Узбекистана произошли коренные изменения. Практически во всех ведомствах связи республики были организованы цифровые услуги, увеличено количество новых рабочих мест. Налажена система предоставления качественных услуг населению нашей страны. Почтовый обмен осуществлялся не только внутри нашей республики, но и с соседними и зарубежными странами. Ни Интернет, ни электронная почта не могут заменить почтовую службу. Напротив, они создали новые возможности для почтовых услуг. Мы живем в эпоху, когда различные средства коммуникации дополняют друг друга. Почтовое отделение предоставляет услуги не только онлайн-покупателям и продавцам, но и тем, кто не умеет пользоваться новыми технологиями и имеет в своей жизни необходимое значение для общения с внешним миром. Кроме того, в данной статье показано, что почтовая связь играет важную роль в развитии и укреплении экономики нашей страны, в улучшении жизни граждан и повышении домашнего комфорта.

Abstract

Over the years of independence, fundamental changes have occurred in the postal system of Uzbekistan. Digital services were organized in almost all communications departments of the republic, and the number of new jobs was increased. A system has been established to provide quality services to the population of our country. Postal exchange was carried out not only within our republic, but also with neighboring and foreign countries. Neither the Internet nor email can replace the postal service. On the contrary, they created new opportunities for postal services. We live in an era where different means of communication complement each other. The Post Office provides services not only to online buyers and sellers, but also to those who do not know how to use new technologies and have the necessary importance in their lives to communicate with the outside world. In addition, this article shows that postal services play an important role in the development and strengthening of the economy of our country, in improving the lives of citizens and increasing home comfort.

Kalit so'zlar: Xalqaro pochtamt, xalqaro tezkor pochta, elektron pul jo'natmalari, O'zbektelekom, gibrid pochta, tezkor pochta, kuryerlik xizmati, UNISAVDO, ekspress pochta, toshkent pochtami.

Ключевые слова: Международная почта, международная экспресс-почта, электронные денежные переводы, Узбектелеком, гибридная почта, экспресс-почта, курьерская служба, UNISAVDO, экспресс-почта, Ташкентское почтовое отделение.

Key words: International mail, international express mail, electronic money transfers, Uzbektelecom, hybrid mail, express mail, courier service, UNISAVDO, express mail, Tashkent post office.

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda pochta aloqa tizimi sohasida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Dunyoning aksariyat davlatlari qatori mamlakatimizda ham milliy pochta operatorlari ko'plab xat-xabarlar hajmini keskin qisqarishi, raqamli xizmatlarning o'sishi kabi muammolarga duch keldi. Mavjud vaziyatdan kelib chiqib, "O'zbekiston pochtasi" AJ rahbariyati va jamoasi pochta aloqasi milliy operatori faoliyatining sifat jihatdan yangi uslublarini joriy etish, pochta aloqa xizmatlari va logistika tizimini modernizatsiya qilish va bozorda uning faoliyati mavqeyini oshirishga doir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, an'anaviy xizmat turlaridan tashqari aholiga qulaylik yaratish uchun pochta aloqa bo'limlari va filiallarida kommunal xizmat, telefon, elektr-energiya uchun haq to'lash, mol-mulkni sug'urta qilish, lotereya biletlari xarid qilish, pochta orqali jo'natish va olish, elektron pochtadan foydalanish singari bir qator yangi xizmat turlari tashkil etildi. Sohaga doir yangi infratuzilmalar yaratildi. Bunday yangilanishlar pochta aloqa tizimining yangi bosqichga ko'tarilishini va rivojlanish jarayonlarini aholining ijtimoiy-madaniy hayotidagi tutgan o'rnini alohida mavzu doirasida tadqiq etishni taqozo etmoqda. Pochta aloqasi orqali xabarlarni tezkor yetkazish, davlat va jamiyat hayotini demokratlashtirish, fuqarolarda yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish turli xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikni ta'minlashdagi o'rnini alohida mavzu doirasida tadqiq etishni taqozo etmoqda. Shuningdek, pochta aloqasi orqali yuborilayotgan xabarlarning aniqligi har bir mamlakatning ijobiy imijini shakllanishidagi roli media tadqiqot markazlarida tahlil etib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda pochta aloqa sohasining paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonlarini o'rganishda mahalliy olimlar e'tibor qaratishgan. Xususan, O'.Mavlonov, S.Ahmedov, B.Umarovlar tomonidan tayyorlangan va 2014-yilda o'zbek, rus va ingliz tillarida nashrdan chiqarilgan "O'zbekiston pochtasi: tarix va taraqqiyot" kitobida, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professor-o'qituvchilari L.N.Jo'rayev G'.R.Mamatqulov, R.F.Xudoyberdiyev va B.I.Ahtamov hammullifligida tayyorlangan "Zamonaviy pochta aloqasi" nomli o'quv qo'llanmasida respublikada pochta aloqa xizmatining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi qisman aks ettirilgan. Abdug'ani Abduraxmonov rahbarligi va tahriri ostida 2022-yilda o'zbek, rus va ingliz tillarida nashrdan chiqarilgan "Yangi O'zbekiston – raqamli dunyo" kitobida ham ba'zi ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotda ilmiy tahlilning analiz va sintez, davriylik, tarixiy va tavsifiy yondashuvlar kabi usullardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mustaqillik yillarda O'zbekiston pochtasi tizimida va faoliyatida tub burilishlar davri bo'ldi. O'tgan davr mobaynida barcha aholi punktlari pochta korxonalari tarmog'i bilan qamrab olindi. 1991-yilda pochta aloqasi va matbuot tarqatish korxonalari tarkibidagi bo'limlar negizida pochta aloqasi mustaqil birlashmasi hamda ularning viloyat va tuman bo'limlari tashkil etildi. Aholining va xalq xo'jaligining pochta aloqasi va matbuot xizmatiga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini va aloqa vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Aloqa vazirligining 1992-yil 28-fevraldagagi 34-sonli buyrug'iga ko'ra 1992-yil 1-martdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Aloqa vazirligining "O'zbekiston pochtasi" pochta aloqasi va matbuotni tarqatish davlat korxonalari konserni Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahrida tuzilishi belgilab berildi [1]. O'zbekiston pochtasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stlik mamlakatlari orasida birinchi bo'lib 1992-yilda elektr aloqa tarmoqlaridan ajralib chiqdi. Shu yili "O'zbekiston pochtasi" konserni tashkil topdi, 1994-yil 24-fevralda u Butunjahon pochta ittifoqi a'zoligiga qabul qilindi [2].

1994-1995-yillarda yordamchi xo'jalik korxonalari, sanoat, loyihalash, qurilish, moddiy-teknik ta'minot, avtotransport xizmati va matbuot tarqatishlar davlat tasarrufidan chiqarildi. Hukumatimiz tomonidan aloqa korxonalarini daromaddan olinadigan soliqlardan 2000-yilgacha ozod qilindi. Korxonalar ixtiyorida qolgan mablag'lar pochtaning moddiy texnik bazasini rivojlantirishga yo'naltirildi. O'sha vaqtida Respublika pochta korxonalari daromadlarining 21 % i asosiy pochta xizmatlar ko'rsatishdan, 14 % i matbuot tarqatishdan, 32,7 % i nafaqa to'lovlaridan, 32,3 % i noan'anaviy xizmatlardan kelgan [3].

TARIX

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1997-yil 23-iyuldagagi "Axborot tizimlari sohasini qayta tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi 1823-sون Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 31-iyuldagagi "O'zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish haqida"gi 380-sون qaroriga asosan "O'zbekiston pochtasi" Davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi [4].

2002-yilda Pochta aloqasi korxonalarida 11,23 mln. xat, 62,1 mln. gazeta va jurnallar, 60 ming jo'natma, 565 ming so'zlashuvlar va 170 ming telegramma qabul qilindi. Pochta aloqasi korxonalarini orqali 31 mlrd. so'm pensiya va nafaqalar to'landi. 2003-yilda "O'zbekiston pochtasi" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat boshqarmalari, Xalqaro pochtamt, Xalqaro tezkor pochta, "O'zbekiston markasi" aksiyadorlik jamiyati, 185 aloqa uzeli va 3012 aloqa bo'limlari mavjud bo'lgandi.

2008-yilgacha jahonning 80 ta davlati bilan pochta almashinuvlari amalga oshirildi. Aholi to'lovlari amalga oshirish maqsadida operatorlarning ish joylari "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi billing tizimiga ulangan. Elektron pul jo'natmalari tizimiga 216 pochta aloqalari bo'limlari ulangan bo'lib, barcha respublika mintaqa va tumanlari markazlarida mazkur xizmatni amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Xalqaro elektron pul jo'natmalari almashuv bo'limlari ochilgan [5].

2009-yil oxiriga kelib 202 ta aholi punktlari ko'chma pochta bo'limlari bilan qamrab olindi [6]. 2010-yilda "O'zbekiston pochtasi" OAJ tomonidan ISO 9001:2008 xalqaro standartlar talabiga muvofiq, "Sifatni boshqarish tizimini joriy etilganligi va qo'llanilayotganligi to'g'risida"gi DQS xalqaro sertifikatsiya tarmogi hamda O'zstandart agentligining milliy sertifikatlari topshirildi [7]. 2013-yilda pochta aloqasi obyektlarida avtomatlashtirilgan tizimga bog'langan ish o'rinnari soni 1879 taga yetkazilib, shundan xizmat ko'rsatishda foydalilanayotgan ish o'rinnari 1298 tani tashkil etgan, 2012-yilga nisbatan bu ko'rsatkich mos ravishda 21,0% va 11,1% ga ko'paygan [8]. 2015-yilda "O'zbekiston pochtasi" OAJ O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasining milliy operatori etib belgilangan [9].

2018-yil 19-fevraldagagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 5349-soni farmonida O'zbekistonda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ish olib borilishi ta'kidlandi. Shuningdek, sohadagi ba'zi kamchiliklar ko'rsatilib o'tilib, ularning yechimlari, soha oldidagi istiqbolli vazifalar sifatida belgilab berildi [10]. 2018-yildan "O'zbekiston pochtasi" AJga bank va sug'urta xizmatlarini ko'rsatish huquqi berildi [11].

"O'zbekiston pochtasi" AJ tomonidan 2019-yilning 9 oyida 10 ta yangi xizmat joriy etilgan. Jumladan, qator internet do'konlaridan xarid qilingan tovarlar pochta orqali yetkazib berilgan. Rossiya, Qozog'iston va qator Yevropa mamlakatlariga pochta jo'natmalari yetkazib berilmoxda, "Gibrid pochta" xizmati yo'lga qo'yildi.

131 ta pochta aloqasi obyektlarida tezkor pochtani qabul qilish-jo'natish ishlari tashkil etilib, ushbu xizmat yo'lga qo'yilgan obyektlar soni 325 taga yetkazildi. 111 ta pochta aloqasi obyektlarida kuryerlik xizmati yo'lga qo'yilgan, obyektlar soni 268 taga yetkazildi. Elektron tijorat orqali sotib olingan tovarlar joylangan pochta jo'natmalarini yetkazib berish xizmati rivojlantirilib, umumiyoq og'irligi 102,4 tonnalik 1,5 millionta buyurtma qabul qilingani va 1,0 mln. dollardan ziyod daromad olingan. Buning natijasida "O'zbekiston pochtasi" AJ 2019-yilning 9 oyida 109,6 mlrd. so'm daromad olgan va yilni zararsiz yakunladi [12].

2020-yilda aholining pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanishi uchun qulayliklar yaratish maqsadida 38 ta pochta aloqasi bog'lamasi va 88 ta aloqa bo'limining faoliyati qayta tiklandi. Natijada 275 ta yangi ish o'rni yaratildi. Amalga oshirilgan ishlarni natijasida pochta aloqasi obyektlari orqali 60 dan ortiq turdagagi to'lovlarni qabul qilish yo'lga qo'yildi va o'tgan yilga nisbatan 1,6 barobar ko'p to'lovlar qabul qilindi. Shu bilan birga, ustama to'lovli pochta jo'natmalarini yetkazib berish xizmati tiklanib, 2020-yil yakuniga qadar 19 milliard so'mlik jo'natmalarini yetkazib berildi. 2020-yilga kelib Respublikamiz jahonning 96 ta mamlakatlari bilan pochta ayriboshlash ishlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrdagi "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini

ta'minlash yuzasidan 23 ta pochta aloqasi obyektida davlat xizmatlari ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi. Bir dona avtomat konvertlash uskunasi sinov tariqasida "Toshkent pochtamt" filialida o'rnatildi. Milliy onlayn savdo maydonchasiga tadbirkorlarning ishlab chiqqan mahsulotlarini joylashtirish bo'yicha 30 nafar tadbirkor bilan shartnomalar tuzildi [13]. Shuningdek, hozirgi kunga qadar tijorat banklardan kredit va lizing mablag'larini jalb etgan holda pochta va kuryerlik jo'natmalarini, davriy matbuot nashrlarini va boshqa jo'natmalarini markazdagi pochta saralash bo'limidan olib, oluvchilarga yetkazib berish (bunda aloqa bo'limlari pochta jo'natmalarini yetkazib berish faoliyati bilan shug'ullanmaydi) amaliyotini joriy etish maqsadida 240 ta elektrioskuter sotib olindi va ish joylariga berildi. Pochta almashinuvlarni amalga oshirishda foydalanilayotgan avtovtransportlar soni esa 388 taga yetdi.

"Gibridd pochta" xizmatidan foydalanish bo'yicha 50 dan ortiq tashkilotlar bilan shartnomalar tuzildi. Shuningdek, ushbu xizmatni rivojlantirish va ish unumdoorligini oshirish hamda pochta jo'natmalariga ishlov berish jarayonida qo'l mehnatini qisqartirish maqsadida, 2 ta "Neopost" avtomat konvertlash uskunasi xarid qilinib, Toshkent shahrida sinov tariqasida ishlatilmoqda.

Mijozlar nomiga kelgan pochta jo'natmalarini olishi uchun mo'ljallangan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi 30 ta avtomatlashtirilgan komplekslar – (pochtamt) sotib olindi hamda Toshkent shahridagi 13 ta pochtamt pochta aloqasi obyektlariga va aholi gavjum hududlarga, 17 ta pochtamt Andijon, Buxoro, Guliston, Jizzax, Nukus, Navoiy, Samarqand, Namangan, Farg'ona (3ta) va Urganch shahriga o'rnatildi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini onlayn sotish va mijozlarga yetkazib berish imkoniyatini beruvchi "UNISAVDO" brendi ostida Milliy onlayn savdo maydonchasi 2021-yil fevral oyidan boshlab to'liq ishga tushirildi. Shuningdek, may oyidan mobil ilovasi ishga tushirildi [14].

2021-yilda "O'zbekiston pochtasi" aksiyadorlik jamiyatি tarkibida 14 ta hududiy filial va bitta ixtisoslashtirilgan "Xalqaro pochtamt" filiali, 162 ta pochta aloqasi bog'lamalari va 1783 ta aloqa bo'limlarini birlashtirib, pochta jo'natmalarini o'z vaqtida yetkazib berishda uchta avia, 275dan ortiq avtomobil pochta tashish yo'nalishlari bo'yicha faoliyat yuritmoqda. So'nggi bir yil ichida esa 9 ta pochta aloqasi bog'lamalari faoliyati qayta yo'lga qo'yildi, 20 ta butunlay yangi pochta aloqasi bo'limi ochildi. O'z navbatida 70 dan ortiq yangi ish o'rnlari yaratildi. Xizmat sifatiga e'tibor berilib, respublikamiz shaharlardan tortib olis chekka hududlarida yashovchi aholiga xat-xabar, jo'natmalar va vaqtli matbuot nashrlarini bir xil vaqt oralig'ida yetkazilishiga erishilmoxqda [15].

2021-yil 14-dekabr sanasida "O'zbekiston pochtasi" AJ rebrendingni amalga oshirdi va aynan shu sanadan boshlab UzPost brendiga o'tdi. "UzPost"ning mavjud axborot tizimlari yangilandi, to'lovlarni qabul qilish va pul o'tkazmalari bo'yicha avtomatlashtirilgan tizim yangilanib, AVVAL brendi ostida ishga tushirildi hamda uning mobil ilovasi ham yaratildi. Bugungi kunda mazkur tizimda 60 dan ortiq to'lovlarni qabul qilish imkoniyati mavjud. Hozirda respublikaning chekka hududlarida yashovchi aholi uchun 930 ga yaqin pochta aloqa obyektlarida 30 turdan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatilgan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini onlayn sotish va mijozlarga yetkazib berish imkoniyatini beruvchi UNISAVDO brendi ostida Milliy onlayn savdo maydonchasi 2021-yil mart oyidan boshlab to'liq ishga tushirilgan. Elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida Toshkent shahrida, Andijon viloyatining Asaka tumanida, Buxoro viloyatining Vobkent tumanida va Xorazm viloyatining Urganch shahrida logistika markazi qurilishi boshlandi.

Shuningdek, "Gibridd pochta" tizimi takomillashtirilib, Yagona milliy tizim joriy etildi. Gibridd pochta xizmatning afzalligi shundaki, davlat organlari va tashkilotlari pochta jo'natmalarini konvertga solish, unga marka yopishtirish, oluvchining manzillarini yozish va pochtaga olib kelish vazifalaridan xoli bo'lishadi. Buning natijasida pochta jo'natmasini yetkazib berishdagi nazorat muddatlari qisqarishiga erishildi, ya'ni avval pochta jo'natmalar eng chekka hududda yashovchi aholiga 6-8 kun ichida yetkazib berilgan bo'lsa, endilikda 1-2 kun ichida amalga oshirilyapti. Bugungi kunda 100 dan ortiq davlat organlari va tashkilotlari ushbu xizmatdan foydalanib kelmoqda. Gibridd pochta jo'natmalarining hajmi 2020-yilga nisbatan 2021-yilda 2 barobar ko'payib, 3,5 million donani tashil etgandi [16].

2022-yilda "O'zbekiston pochtasi" AJ tarkibiy jihatdan 165 ta tuman va shahar pochta aloqasi tarmoqlari, 1803 ta pochta aloqasi bo'limlaridan (ulardan 1358 tasi qishloq joylarida) iborat bo'lgan 14 ta mintaqaviy filiallar, 4 ta ixtisoslashtirilgan filiallar – "Xalqaro pochtamt", "Xalqaro

TARIX

tezkor pochta”, “O’zbekiston markasi”, “Matbuot tarqatish”ni o’z ichiga oladi. Shu bilan birga, respublika hududida pochta jo’natmalari muntazam ravishda 3 ta avia, 303 ta avtomobil yo’nalishlari bo'yicha yetkazib berilmoxda [17]. Bugungi kunda “O’zbekiston pochtasi” AJga qarashli ixtisoslashtiriligan filiallar ham faoliyat olib bormoqda. O’zbekistonda ekspress pochta xizmati butun dunyo bo’ylab va mamlakatimiz hududida tezkor pochta jo’natmalarini qabul qilish va yetkazib berish bilan shug’ullanib kelmoqda. Mamlakatimizda “O’zbekiston pochtasi” AJning 27 obyekti orqali tezkor pochta xizmati ko’rsatilgan. Shu bilan bir qatorda “Toshkent pochtamti” 4 ta shahar pochta aloqa bo’limi, 158 ta aloqa bo’limi, 3 ta ishlab chiqarish uchastkasini o’z ichiga olgan yirik pochta bo’linmalari orqali aholiga sifatli pochta xizmatlari ko’rsatilib kelingan [18].

XULOSA

- “O’zbekiston pochtasi” AJ “O’zbektelekom” tarkibidan chiqarilib, respublika aholisi va korxona tashkilotlarga alohida xizmat ko’rsata boshladi, pochta aloqa bo’limlarining tizimi yangilandi hamda axborot kommunikatsiya jihatlari bilan ta’minlandi.
- Kelgusida elektron tijorat orqali sotib olinadigan tovarlarni pochta tarmogi’i orqali yetkazib berish ishlarini kengaytirish hamda transchegaraviy Internet-savdoni rivojlantirish orqali O’zbekiston pochtasi jamiyatni daromadlarini yanada ko’paytirish choralarini ko’rish maqsadga muvofiq.
- “O’zbekiston pochtasi” AJ veb sayti (VVV.pochta.uz) kabi uning filiallarida ham zamonaviy veb saytlar yaratilsa, mijozlarga yanada kengroq shart-sharoitlar yaratilgan bo’lardi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

- O’zMA, M-2007-jamg’arma, 1-ro’yxat, 1-ish, 1-varaq.
- Mavlanov O., Axmedov S., Umarov B. O’zbekiston pochtasi tarix va taraqqiyot. — Toshkent: Ma’naviyat, 2014 – B.130.
- Abdullahov F. Axborot tizimlarning keng maydoni. Aloqa dunyosi, 2001 1(2). – B.7.
- O’zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 31-iyuldaggi “O’zbekiston pochta va telekommunikatsiya agentligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi 380-sonli qarori.
- Infocom.uz — Ташкент, 2009. – № 10. – Б.5.
- Infocom.uz — Ташкент, 2009. – № 12. – Б.10.
- Mahkamova N, Babajanov X. O’zbekiston tarixi. — Toshkent : Aloqachi, 2020. – B.192.
- Infocom.uz — Ташкент, 2013. – № 1. – Б.20.
- Yusupov I. O’zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). Buxoro: Durdona, 2022. – B.59.
- Mahkamova N, Babajanov X. O’zbekiston tarixi. — Toshkent: Aloqachi, 2020. – B.193.
- Mirzaqulov T. Taraqqiyot sari muhim qadamlar //“Xabar” gazetasi, 2018, 23 fevral, 8 (1326). – B.2.
- Kun.uz. 7.11.2019-y.
- “Xabar” gazetasi, 2021, 5-fevral 5 (1479). – B.2.
- Abdullahov N. “O’zbekiston pochtasi” 240 ta elektroskuter sotib oldi. “Xabar” gazetasi, 2021, 9-iyul 27(1501). – B.2.
- Mansurov D. “O’zbekiston pochtasi” AJ: Xizmatlar tezkor va sifatli bo’lishi shart. //“Xabar” gazetasi, 2021, 28-may, 21 (1495). – B.12.
- “Xabar” gazetasi, 2022, 25-mart, 12 (1538). – B.3.
- “Xabar” gazetasi, 2022, 18-mart, 11 (1537). – B.3.
- Abdug’ani Abduraxmonov. Yangi O’zbekiston – raqamli dunyo. . — Toshkent: “Tasvir”, 2022. – B.162.

(Taqrizchi: Tarix fanlari doktori Q.Masharipov.)